hu.gov.uz imzosi orqali EHTI bilan tasdiqlangan, Ayzmat kodi: 00143143

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI
BUYRUG‘I

8 aprel 2026 yil. **1441-son** Toshkent sh.

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2025-yil 20-fevraldagi “Ta’lim tashkilotlarida “Qizlar tashabbuslari va maslahat markazi”ni tashkil etish to‘g‘risida”gi 67-son buyrug‘ ijrosini ta’minlash maqsadida

B U Y U R A M A N :

1. Oliy ta’lim fan va innovatsiyalar vazirining 2025-yil 20-fevraldagi 67-son buyrug‘i ijro uchun qabul qilinsin.

2. “Qizlar tashabbuslari va maslahat markazi xona”sini tashkil etish konsepsiyasi ilova muvofiq vazir buyrug‘i bilan tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

3. Vazir buyrug‘ining 3-bandiga muvofiq, universitetda “Qizlar tashabbuslari va maslahat markazi” xonasi tashkil etilsin.

4. Xotin-qizlar masalalari bo‘yicha kengash raisi I.K.Maxkamovaga:

talaba-qizlar bilan individual va guruhiy maslahat hamda suhbatlar o‘tkazish;

qizlar uchun kichik guruhlarda ma’naviy-ma’rifiy va profilaktik tadbirlar tashkil etish;

“Qizlarjon” klubi faoliyati uchun zarur sharoit yaratish;

qizlarning ijtimoiy tashabbus va loyihalarini eshitish hamda ularni takomillashtirishga ko‘maklashish;og‘ir ijtimoiy sharoitdagi talabalarni qo‘llab-quvvatlash yuzasidan tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish vazifasi yuklansin.

5. Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor N.L.Asqarovga:

“Qizlar tashabbuslari va maslahat markazi” uchun universitetda xona tashkil etib, kerakli jihozlar bilan ta’minlash vazifasi yuklansin.

6. Ushbu buyruqni tegishliligi bo‘yicha mas’ullarga elektron hujjat tizimi orqali yetkazish Murojaatlar bilan ishlash, nazorat va monitoring boshqarmasi boshlig‘i D.D.Achilovga topshirilsin.

7. Mazkur buyruqning ijro nazoratini o‘z zimmamda qoldiraman.

Asos: Oliy ta’lim fan va innovatsiyalar vazirining 2025-yil 20-fevraldagi “Ta’lim tashkilotlarida “Qizlar tashabbuslari va maslahat markazi”ni tashkil etish to‘g‘risida”gi 67-son buyrug‘i.

Rektor **Sh.A. Boymuradov**